

ERKINLIK VA QARAMLIK DIALEKTIKASI: E.FROMM NAZARIYASI ASOSIDA SOTSIOLOGIK TAHLIL

Raximbayeva Shoxista Usmon qizi

O'zbekiston Respublikasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitet

Ijtimoiy fanlar fakulteti sotsiologiya yonalish: 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20543109>

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli mutafakkir va sotsial psixolog Erix Frommning falsafiy va sotsiologik qarashlari asosida erkinlik va qaramlik dialektikasi sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Muallif Frommning "Ozodlikdan qochish" konsepsiyasiga tayanib, zamonaviy jamiyatda insonning sotsial mavqeyi, individualizatsiyalashuv (shaxsiylashuv) jarayoni va uning natijasida yuzaga keladigan yolg'izlik hamda xavotir hissini tadqiq etadi. Maqolada insonning erkinlik mas'uliyatidan voz kechib, yangi qaramlik shakllariga (avtoritarizm, destruktivlik va avtomatik konformizm) intilish mexanizmlari sotsiologik prizma orqali yoritilgan. Tadqiqot xulosalari bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar davrida shaxs erkinligi muammosini tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: erkinlik, qaramlik, dialektika, Erix Fromm, sotsiologik tahlil, ozodlikdan qochish, avtoritarizm, konformizm, yolg'izlik, shaxs.

Аннотация. В данной статье на основе философско-социологических взглядов известного мыслителя и социального психолога Эриха Фромма осуществляется социологический анализ диалектики свободы и зависимости. Опираясь на концепцию Фромма «Бегство от свободы», автор исследует социальный статус человека в современном обществе, процесс индивидуализации и возникающие в его результате чувства одиночества и тревоги. Через призму социологии в статье освещаются механизмы, при которых человек отказывается от бремени свободы и стремится к новым формам зависимости (авторитаризм, деструктивность и автоматный конформизм).

Выводы исследования способствуют более глубокому пониманию проблемы свободы личности в эпоху современной глобализации и цифровых трансформаций.

Ключевые слова: свобода, зависимость, диалектика, Эрих Фромм, социологический анализ, бегство от свободы, авторитаризм, конформизм, одиночество, личность.

Abstract. This article provides a sociological analysis of the dialectics of freedom and dependence based on the philosophical and sociological views of the prominent thinker and social psychologist Erich Fromm. Drawing upon Fromm's "Escape from Freedom" concept, the author examines the social status of the individual in modern society, the process of individuation, and the resulting feelings of loneliness and anxiety.

Through a sociological lens, the article highlights the mechanisms by which individuals relinquish the responsibility of freedom and lean toward new forms of dependence (authoritarianism, destructiveness, and automaton conformity). The findings of the study contribute to a deeper understanding of personal freedom in the contemporary era of globalization and digital transformation.

Keywords: freedom, dependence, dialectics, Erich Fromm, sociological analysis, escape from freedom, authoritarianism, conformity, loneliness, personality.

KIRISH

Zamonaviy sotsiologiya fanining eng fundamental va doimiy dolzarb muammolaridan biri — shaxs sotsializatsiyasi jarayonida uning subyektiv erkinligi hamda sotsial qaramligi o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni tadqiq etishdir. XXI asr ijtimoiy realligi insonga misli ko'rilmagan individualizatsiyalashuv imkoniyatlarini, an'anaviy institutlar kishanlaridan ozod bo'lish muxtoriyatini taqdim etgan bo'lsa-da, sotsiologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi sotsial institutlar bosimidan qutulgan zamonaviy shaxs mutloq ijobiy erkinlikka erisha olmadi. Aksincha, u ekzistensial yolg'izlik, ijtimoiy xavotir va makroiijtimoiy jarayonlar qarshisida o'zining ojizligini his qilish kabi yangi tizimli muammolarga duch keldi va bu paradoks holat sotsiologiyada "erkinlik va qaramlik dialektikasi" tushunchasini yangicha empirik hamda nazariy kontekstda qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Ushbu sotsial-psixologik ziddiyatlarni konseptuallashtirishda Frankfurt maktabining ko'zga ko'ringan vakili, neofreydizm va sotsial psixoanaliz asoschisi Erix Frommning "Ozodlikdan qochish" nazariyasi fundamental metodologik poydevor vazifasini o'taydi. Fromm sotsiologik fikrlash tarixida birinchilardan bo'lib marksistik iqtisodiy determinizm va freydistik biologik reduksionizmni sintez qildi hamda jamiyat va shaxs o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi "ijtimoiy xarakter" konseptini fanga kiritib, muayyan sotsial-iqtisodiy formatsiya o'zining barqarorligini ta'minlash uchun o'ziga xos ijtimoiy xarakter tiplarini shakllantirishini va bu jarayonda insonning erkinlikka bo'lgan munosabati markaziy o'rin tutishini isbotladi. Sotsiologik muammo shundaki, zamonaviy iste'mol jamiyati va kapitalistik munosabatlar shaxsga salbiy erkinlikni taqdim etsa-da, uni ijobiy erkinlikni amalga oshirish mexanizmlari bilan to'liq ta'minlay olmaydi, natijada atomizatsiyalashgan va ijtimoiy begonalashuvga mahkum bo'lgan individ o'zining ekzistensial xavotiridan qutulish uchun erkinlik bergan og'ir mas'uliyat yukidan voz kechishga — ya'ni "ozodlikdan qochish"ga ¹majbur bo'ladi. Fromm tomonidan asoslangan uchta asosiy psixologik qochish va yangi qaramlikni qabul qilish mexanizmlari — avtoritarizm, destruktivlik hamda avtomatik konformizm bugungi kunda raqamli transformatsiyalar, media manipulyatsiyalar va ommaviy madaniyat prizmasida mutlaqo yangi sotsiologik shakllarga ega bo'layotgani sababli, ushbu maqolaning maqsadi E. Fromm nazariyasi doirasida erkinlik va qaramlik dialektikasini sotsiologik jihatdan dekonstruksiya qilish, zamonaviy jamiyatdagi tizimli inqirozlar va global ratsionallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy adaptatsiya mexanizmlarini hamda yangi sotsial qaramlik tendensiyalarining konseptual ildizlarini ilmiy nuqtai nazardan ochib berishdan iboratdir.

Erix Fromm sotsiologik merosida erkinlik fenomenining tabiati bir chiziqli jarayon emas, balki chuqur dialektik qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy-psixologik tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Mutaфakkir insoniyatning an'anaviy jamiyat kishanlaridan qutulish tarixini tahlil qilar ekan, erkinlikni ikki guruhga — salbiy (nimadandir erkin bo'lish) va ijobiy (nimadir qilish uchun erkin bo'lish) ko'rinishlarga ajratadi. Salbiy erkinlik ²insonning tabiat kuchlariga, diniy dogmalarga, feodal kishanlarga va qat'iy tabaqaviy tizimlarga qaramlikdan ozod bo'lishining tarixiy bosqichlarini ifodalaydi.

¹ Fromm E. Ozodlikdan qochish. — Moskva: Progress, 1991. — 272 bet.

² Raxmatov M. Globallashuv sharoitida shaxs erkinligi va ijtimoiy mas'uliyat dialektikasi // O'zbekiston Milliy universiteti xabarleri. — Toshkent, 2024. — № 2/1. — B. 112-118.

Sotsiologik nuqtai nazardan, kapitalistik iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi va modernizatsiya jarayonlari shaxsni jamoaviy bog'liqliklardan uzib, uni mustaqil, o'z taqdirini o'zi belgilovchi subyektga aylantirdi. Biroq, aynan mana shu sotsial muxtoriyat insonning makroiqtimoiy tizimlar qarshisida mutloq kimsasizlanishi va atomizatsiyalashuviga, ya'ni jamiyatda har bir individning alohida guruhlardan ajralib, yakkalanib qolishiga zamin yaratdi.

Fromm konsepsiyasidagi asosiy ziddiyat ham shunda: tashqi avtoritetlar taqiqidan qutulgan zamonaviy shaxs o'zining ichki salohiyatini, hissiy va intellektual imkoniyatlarini o'z-o'zidan namoyon etishni ta'minlovchi ijobiy erkinlik darajasiga ko'tarila olmadi.

Ijobiy erkinlikka erisha olmaslik³ va sotsial reallik o'rtasidagi nomutanosiblik jamiyatda tizimli ijtimoiy begonalashuv muammosini keltirib chiqaradi. Karl Marksning iqtisodiy munosabatlardagi begonalashuv g'oyasini sotsial-psixologik darajaga ko'chirgan Fromm, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida inson nafaqat o'z mehnati mahsuliga, balki o'zining shaxsiy munosabatlariga va o'z shaxsiyatiga ham begonalashishini asoslab beradi. Iste'mol jamiyatining bozor prinsiplari inson xarakterini ham tovar ierarxiyasiga bo'ysundiradi; shaxs sotsial muhitda o'zining takrorlanmas sifatlari bilan emas, balki bozordagi xaridorgirligi va ijtimoiy mavqeyi bilan qiymatlanadigan obyektga aylanadi. Bu jarayon shaxs psixikasida chuqur ekzistensial inqirozni,⁴ ya'ni hayot mazmunini yo'qotish, asabiylik hamda kelajak oldidagi fundamental xavotir hissini rag'batlantiradi. An'anaviy munosabatlar tizimidagi himoyalanganlik hissidan mahrum bo'lgan va global iqtisodiy mexanizmlar oldida o'zining zarrachalik mavqeyini anglagan yakkalangan shaxs o'zini mutloq o'jiz his eta boshlaydi. Shunday qilib, Fromm nazariyasidagi erkinlik dualizmi shuni ko'rsatadiki, agar salbiy erkinlik ijobiy erkinlik (ijodiy mehnat, haqiqiy sotsial hamjihatlik va muhabbat) bilan mustahkamlanmasa, u muqarrar ravishda shaxsni ijtimoiy begonalashuv girdobiga tashlaydi va uni o'z erkinligidan voz kechishga majbur qiluvchi sotsial-psixologik sharoitni shakllantiradi.

Salbiy erkinlik keltirib chiqaradigan ijtimoiy begonalashuv va chuqur xavotir hissi shaxsni o'z mustaqilligidan voz kechish hamda yangi qaramlik shakllarini qidirishga majbur qiladi. Erix Fromm o'z konsepsiyasida⁵ insonning erkinlik mas'uliyatidan qochishini ta'minlovchi uchta asosiy ijtimoiy-psixologik mexanizmi asoslab beradi, bular: avtoritarizm, destruktivlik va avtomatik bo'ysunishdir. Birinchi mexanizm bo'lgan avtoritarizm shaxsning o'z unikal mustaqilligidan voz kechib, o'zidan tashqaridagi biror bir kuchli subyekt yoki tizim bilan birlashishga intilishida namoyon bo'ladi. Sotsiologik nuqtai nazardan, bu jarayon hukmronlik va tobe bo'lish munosabatlarini keltirib chiqaradi, unda shaxs yoki boshqalarni o'ziga bo'ysundirish orqali, yoki o'zidan yuqori turuvchi ijtimoiy tuzilmalarga so'zsiz itoat etish orqali o'zining ichki o'jizligini yashirishga urunadi. Ikkinchi mexanizm — destruktivlik bo'lib, u avtoritarizmdan farqli ravishda shaxsning tashqi dunyo bilan birlashishini emas, balki uni vayron qilishini anglatadi.

Agar inson o'z atrofidagi obyektlar va ijtimoiy muhitni nazorat qila olmasa, undagi ichki o'jizlik hissi tashqi dunyoga nisbatan tajovuzkorlikka aylanadi; ya'ni inson o'ziga xavf solayotgan muhitni yo'q qilish orqali o'z xavfsizligini ta'minlashga harakat qiladi.

³ Shomurodov H. Zamonaviy jamiyat sotsiologiyasi va axborot manipulyatsiyasi mexanizmlari. – Toshkent: Muharrir, 2021. – 180 bet.

⁴ Fromm E. Sanoat jamiyatining inqirozi. – Sankt-Peterburg: Nauka, 2008. – 288 bet.

⁵ Alkarov I. Sotsiologiya tarixi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 312 bet

Fromm g'oyalari ko'ra, zamonaviy jamiyatda eng keng tarqalgan va xavfli qochish mexanizmi bu — avtomatik bo'ysunish (konformizm) hisoblanadi. Ushbu jarayonda individ o'z shaxsiy xususiyatlarini butunlay yo'qotadi, o'zining haqiqiy his-tuyg'ulari, fikrlari va xohishlaridan voz kechib, ijtimoiy muhit taklif qilayotgan tayyor andozalarni qabul qiladi. Shaxs xuddi boshqalar kabi o'ylaydi, boshqalar kabi kiyinadi va gapiradi, natijada uning "Men"i va jamiyat o'rtasidagi ⁶farq butunlay yo'qoladi. Bugungi raqamli transformatsiyalar va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi davrida bu mexanizm mutloq yangi va yashirin ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy iste'mol jamiyatida ommaviy madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar shaxsga qanday yashash, nimalarni xarid qilish va qanday fikrlash kerakligini bilvosita singdiradi.

Inson o'zini mutloq erkin ⁷va o'z tanloviga ega deb hisoblasa-da, sotsiologik tahlillar uning sotsial tarmoqlar algoritmlariga, ommaviy fikrga va guruhlar bosimiga chuqur qaram bo'lib qolganini ko'rsatadi. Shunday qilib, Fromm tomonidan o'tgan asrda kashf etilgan qochish mexanizmlari bugungi kunda raqamli va madaniy qaramlik shaklida namoyon bo'lib, shaxsni erkinlik olib keladigan ekzistensial yolg'izlikdan qutqaruvchi ⁸, biroq uni o'zligidan mahrum etuvchi asosiy ijtimoiy omillar bo'lib xizmat qilmoqda.

Erix Frommning erkinlik va qaramlik dialektikasi hamda uning sotsial-psixologik mexanizmlari bugungi zamonaviy ijtimoiy voqelik nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, quyidagi muhim ilmiy natijalarga erishildi. Birinchidan, zamonaviy jamiyat shaxsga huquqiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan keng qamrovli salbiy erkinlikni (tashqi taqiqlardan ozod bo'lishni) kafolatlagan bo'lsa-da, bu holat insonning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlay olmadi. Sotsiologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy institutlar, jamoaviy qadriyatlar va oilaviy rishtalarning zaiflashishi natijasida inson mutloq yakkalanish va begonalashuv inqiroziga duch keldi. Ya'ni, inson tabiat va jamiyat kishanlaridan qanchalik uzoqlashgani sari, unda subyektiv ojizlik, himoyasizlik va tizimli qo'rquv hissi shu qadar ortib bordi. Bu esa Fromm tomonidan ilgari surilgan salbiy erkinlikning muqarrar ravishda insonni ruhiy va ijtimoiy kimsasizlikka yetaklashi haqidagi nazariy g'oyani to'liq amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar sotsiologiya fanidagi boshqa klassik yondashuvlar bilan qiyosiy muhokama qilinganda, muammoning yanada chuqurroq qirralari namoyon bo'ladi. Karl Marks ⁹ inson begonalashuvini faqatgina iqtisodiy ekspluatatsiya va ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'lagan bo'lsa, Fromm yondashuvi inson psixikasining sotsial xarakter bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Zamonaviy muhokamalarda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda inson o'zining moddiy ehtiyojlarini to'liq qondirgan taqdirda ham, undagi ekzistensial yolg'izlik tuyg'usi yo'qolmaydi. Iste'mol madaniyati insonga o'z og'ir erkinlik mas'uliyatini unitish uchun doimiy ravishda yangi tovarlar, ko'ngilochar vositalar va virtual reallikni taklif qiladi. Biroq, bu elementlar insonni ijobiy erkinlikka (ijodiy mehnat va haqiqiy muhabbatga) yetaklamaydi, balki vaqtinchalik va sun'iy tasalli beradi, xolos. Shunday qilib, muhokama xulosalari shuni ko'rsatadiki, Erix Fromm asarlarida bayon etilgan inson tabiati va jamiyat dialektikasi bugungi globallashuv asrining sotsial kasalliklarini, xususan raqamli konformizm va ommaviy

⁶ Kalle S. Zamonaviy g'arb sotsiologiyasi: darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 416 bet.

⁷ Fromm E. Inson o'zi uchun. – Moskva: Respublika, 1993. – 320 bet.

⁸ Marks K. Falsafiy-iqtisodiy qo'lyozmalar. – Moskva: Siyosiy adabiyot nashriyoti, 1988. – 215 bet.

⁹ Tojiyev T. Shaxs sotsiologiyasi va ijtimoiy adaptatsiya muammolari // Sotsiologiya fanlari jurnali. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 45-52.

manipulyatsiyalarni fundamental darajada tushunish va ularga diagnoz qo'yish uchun eng samarali nazariy-metodologik vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Erix Fromm¹⁰ nazariyasi asosida amalga oshirilgan ushbu sotsiologik tahlil erkinlik va qaramlik o'rtasidagi dialektik aloqadorlik zamonaviy jamiyatda shaxs shakllanishining eng murakkab va ziddiyatli asosi ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy inson erishgan salbiy erkinlik (tashqi taqiq va kishanlardan ozod bo'lish) o'z-o'zidan uni baxtli yoki mustaqil shaxsga aylantirmaydi. Aksincha, an'anaviy ijtimoiy bog'liqliklarning uzilishi insonni makroiijtimoiy jarayonlar va texnologik tizimlar qarshisida mutloq yolg'iz, himoyasiz va xavotirga mahkum etilgan shaxs holatiga keltirib qo'ydi.

Umumiy xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, erkinlik va qaramlik ziddiyatini hal qilishning yagona yo'li — bu salbiy erkinlikni ijobiy erkinlik darajasiga ko'tarishdir. Bu esa shaxsning o'z ichki salohiyatini, intellektual va hissiy imkoniyatlarini jamiyat bilan uzviy uyg'unlikda, ijodiy mehnat hamda haqiqiy insoniy muhabbat orqali o'z-o'zidan namoyon eta olishini taqozo etadi.

Faqatgina mana shunday sotsial muhit va shaxsiy xarakter tuzilishi insonga erkinlik keltiradigan og'ir mas'uliyat yukini ko'tarishga, begonalashuvni yengishga va har qanday yashirin qaramlik shakllaridan xoli bo'lgan haqiqiy muxtoriyatga erishishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fromm E. Ozodlikdan qochish. – Moskva: Progress, 1991. – 272 bet.
2. Fromm E. Inson o'zi uchun. – Moskva: Respublika, 1993. – 320 bet.
3. Fromm E. Sanoat jamiyatining inqirozi. – Sankt-Peterburg: Nauka, 2008. – 288 bet.
4. Alkarov I. Sotsiologiya tarixi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 312 bet.
5. Kalle S. Zamonaviy g'arb sotsiologiyasi: darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 416 bet.
6. Marks K. Falsafiy-iqtisodiy qo'lyozmalar. – Moskva: Siyosiy adabiyot nashriyoti, 1988. – 215 bet.
7. Tojiyev T. Shaxs sotsiologiyasi va ijtimoiy adaptatsiya muammolari // Sotsiologiya fanlari jurnali. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 45-52.
8. Giddens E. Sotsiologiya: darslik. – Toshkent: Sharq, 2002. – 704 bet.
9. Raxmatov M. Globallashuv sharoitida shaxs erkinligi va ijtimoiy mas'uliyat dialektikasi // O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари. – Toshkent, 2024. – № 2/1. – B. 112-118.
10. Shomurodov H. Zamonaviy jamiyat sotsiologiyasi va axborot manipulyatsiyasi mexanizmlari. – Toshkent: Muharrir, 2021. – 180 bet.

¹⁰ Giddens E. Sotsiologiya: darslik. – Toshkent: Sharq, 2002. – 704 bet.